

**MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING MAORIF SOHASIDAGI FAOLIYATI***Sheraliyev Jo'rabek O'lmasvoy o'g'li**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi**Telefon raqami: [97 543 39 33](tel:975433933)**Ilmiy rahbar: M.M.Agzamova**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsent v.b.*

**Annotatsiya:** Maqolada jadid namoyondalari faoliyati, jumladan Mahmudxo'ja Behbudiyning keng qamrovli faoliyati, maorif sohasida amalga oshirgan ishlari, qoldirgan ilmiy merosi va vasiyati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'z:** ma'rifat, maorif, vasiyat, rus tuzemi, yangi usul maktablari, darslik, o'quv qo'llanma, truppa

Insonning moddiy va ma'naviy hayoti bo'ladi. Ma'naviy hayotni inson bilim, tafakkur, aql-idrok, go'zal xulq atvor bilan bunyod qiladi. Ulug' ajdodlarimiz, allomalarimiz ham ma'naviy hayotning eng yuqori bosqichiga yetganlar. Ma'rifatparvar shaxsga aylanganlar. Bugun esa biz yosh avlod ularga munosib bo'lmog'imiz zarur. Shu o'rinda savol tug'iladi. Ma'rifat nima? Ma'rifat — kishilarning ongini, bilimni, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'limtarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma'rifat ilmu urfon ma'nosida ham ishlatiladi. Ma'rifat tushunchasi madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan bog'liq. Ma'rifat ma'naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishga yordam beradi. Ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi. Ma'rifat — bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi.

Jadidchilik namoyondalari ham og'ir davrlarda xalqimizni milliy o'zlik va ozodlik harakati yo'lida olg'a boshlaganlar. Milliy ozodlik harakati yo'lida jangu jadallar bilan emas, balkim ilm va ma'rifat bilan kurash olib borgan. Diplomantik ravishda mustaqillikka erishish yo'lida bir jamoa bo'lishgan. Ma'rifatni keng yoyish maqsadida molini va jonini ham ayamaganlar. Aholi orasidagi boy tabaqalar bilan hamkorlikda yoshlarni chet elda ta'lim va tahsil olishni moliyalashtirish ishlari bilan ham shug'ullanishgan. Jadid namoyondasi Mahmudxo'ja Behbudiyning (1879-1919) bu sohada amalga oshirgan ishlari salmoqlidir. Mahmudxo'ja Behbudiyning ozodlikka, mustaqillikka qon tokishlarga olib keluvchi urushlarsiz, xalq savodini chiqarish va ma'rifatini ko'tarish orqali qaramlikning millat taqdiridagi oqibatlarini anglatish

ishlarida faollik ko'rsatgan. Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatida asosan quyidagilarni ko'ramiz:

- Milliy ongni rivojlantirish, milliy birlikni ta'minlashning asosiy omili ekanligini va u taraqqiyot omili ekanligi g'oyasi
- G'oyalarni ilgari surish va tashviqotdan tashqari o'z hisoblaridan maktab ochish, gazeta va kitoblar nashr qilish ishlarini olib borishi
- Hisob, huquq, din, arab va fors tillarini bilganligi
- Makka, Madina, Misr, Turkiya, Peterburg, Minsk, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlarida bo'lgani
- Millat farzandlarini zamonaviy ilm olishi uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi o'quv yurtlariga yuborish kerak degan g'oyani ilgari surgani.
- Padarkush (1913) dramasi, Risolai asbobi savod, Risolai jug'rofiy Rusiy, Amaliyoti islom asarlari muallifi.
- Samarqand, Oyina (1913) gazeta va jurnalini chop etilishi va boshqalar...

Muqaddas islom ta'limotida ham ilm olishga bo'lgan targ'ibning juda kuchli bo'lgani ma'lum. Jumladan Mahmudxo'ja Behbudiy ham o'z maqolalarida Qur'oni Karim va hadisi shariflarni keltirib, ilm o'rganishning ahamiyati borasida kuyunib so'zlaydi. Dr. Shayx Usmonxon Alimov o'zining "Oilada farzand tarbiyasi" asarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi:

اطلبوا العلم ولو بالصين فان طلب العلم فريضة علي كل مسلم

"Ya'ni: "Ilm Xitoyda bo'lsa ham, uni izlab topib, egallangiz. Zero, ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir" deganlar...

Ushbu ilmlardan jamiyatdagi ma'lum toifa insonlar o'qib o'rganib, ular bilan shug'ullanmasa, boshqa barcha insonlar to'g'ri yo'ldan adashishadi, qiyinchilikka tushib qolishadi. Agar bir yurtida tabib bo'lmasa, fuqarolari kasallikka chalinishadi, hatto o'lib ketishlari mumkin. Hisob ilmini biladigan kishilar bo'lmasa, bu yurt taraqqiyotdan orqada qoladi, kishilar o'rtasidagi savdo sodiq va iqtisodiy munosabatlar izdan chiqadi, meros ilmi bilan shug'ullanish imkioni ham yo'qoladi.

Xuddi shuningdek, iqtisodiyotning, kasb-xunarning boshqa turli yo'nalishlari haqidagi ilmlar, masalan, dehqonchilik, tikuvchilik, hatto hijomat, ya'ni qon oldirish ham farzi kifoyadir. Agar biror-bir yerda qon oluvchi topilmay qolsa, o'sha joy ahli halokat yoqasiga kelib qoladi. Zero, dardni bergan Parvardigor davosini ham berib, uning yo'lini ham ko'rsatgan. Demak, hozirgi zamonda musulmonlar fan-texnika sohasidagi barcha daqiq ilmlar – kibernetika, daqiq hisoblar majmuasi, zarrashunoslik, irsiyatshunoslik va hu kabi ilmlarni ham farzi kifoya darajasida bilishlari zarur bo'ladi"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Alimov, Usmonxon Oilada farzand tarbiyasi / Usmonxon Alimov; mas'ul muxarrir: Shayx Abdulaziz Mansur, - Toshkent; (Movarounnahr), 2018, - 74-75 betlar.

Bundan kelib chiqadiki, Behbudiy va uning jamoasi o'z faoliyatlarini elni xizmatiga qaratgan. Yuqoridagi ma'lumotlarda ilm olish har bir musulmonga farz ekanligi anglashildi. Ushbu hadisni Mahmudxo'ja Behbudiy nafaqat har bir musulmon, balki har bir Muslima uchun ham farz ekanligini ta'kidlagan va hu g'oyani ilgari surgan. Sababi o'sha davrda mutassib jamiyatda xotin-qizlar faqat uy ishlari bilangina cheklanib qolgan edi. Oqibatda farzand tarbiyasida ilm ustiga qurilmagan va aholining ko'plab qatlamida johilona odatlar kuzatila boshlangan. Modomiki, farzand tarbiyasi ummat onalariga bog'liq edi. Afsuski bugungi kunda ham qizlarimizning ilm olishini ahamiyatsiz deb hisoblaydigan ota-onalar ham bor. Ular tarixdagi xatolarni yana takrorlashi mumkin. Shuning uchun ham Mahm,udxo'ja Behbudiy ilgari surgan g'oyalarni targ'ib va tashviq qilish bugungi kun nuqtayi nazaridan olib qaraganda ham dolzarb va ahamiyatlidir.

Yuqoridagi fikrlarimizning tasdig'i o'laroq, quyidagi ma'lumotlarni ham ilova qilamiz. Zahiriddin Muhammad Bobur islom fiqhga bag'ishlangan "Mubayyan" asarida shunday deydi:

“Ulamo askari dedi bu maqol,  
Chihl farz o'ldi muftadii a'mol.

Ilmi farz elga misli qarzdurur,  
Talabi barcha elga farzdurur.

Ulamolarning ko'pchiligi shu so'zni aytadilarki, amallarning boshlanishi qirq farz(ni bilish)dan iboratdir. Farz ilmini, ya'ni buyurilgan amallarning ilmlarini bilish esa xalq uchun misli qarzdir. Uni talab qilish hamma insonlarga farzdir”<sup>2</sup>.

Jadidchilar o'z faoliyatining barchasini chor Rossiyasi yuritgan siyosatining muqobilida faoliyat yuritishgan. Masalan, yangi rus tuzem maktablari muqobilida yangi usul jadid maktablarini ishlab chiqishgan va yangi darslik va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqishgan. Milliy an'analarimizga zid bo'lgan, lekin ko'pchilikni o'ziga jalb qila olgan har-xil rus trupalariga qarshi o'laroq teatrlarni tashkil qilishgan. Jumladan 1909-yilda ilk marta “Padarkush” drammasi xalqimizga namoyish qilingan. Natijada, o'qish va yozishni bilmaydigan toifalarni maorif sohasidagi saviyasini yuksaltirishga qaratilgan edi. Agar yangi usuldagi maktablar uchun o'quv qo'llanma va darsliklar jadid namoyondalari tomonidan yaratilmaganida, o'sha davrdagi aholi ruslashtirish siyosati oqibatida yuzaga kelgan mafkuralarga yo'g'irilgan darslik va qo'llanmalar, adabiyotlarni o'qishgan va uning ta'sirida tarbiyalangan bo'lar edi. Masalan Hamza Hakimzoda Niyoziyning bolalar uchun

<sup>2</sup> B – Zahiruddin Muhammad Bobur. Mubayyan va nasriy bayoni, “Risolayi volidiyya” asari nazmiy tarjimai va sharhi. Nasriy bayon va sharhlar muallifi M.Kenjabeq; mas'ul moharrir A. Mansur; - T.; “Sharq”. 2014 – 12-13-betlar

yozilgan “Yengil adabiyot”, “O’qish kitobi”, “Qiroat kitobi”, Mahmudxo’ja Behbudiyning “Kitobul atfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1908) asarlari fikrimizning tasdig’idir. Behbudiy yaratgan darsliklar uning bevosita davomchisi bo’lgan Shakuriyning maktabida foydalanilgan. Bu haqda akademik Naim Karimov “Mahmudxo’ja Behbudiy” nomli asarida shunday yozadi:

“Shakuriy maktabida Behbudiyning darslik va o’quv qo’llanmalari asosida berilgan bilim va bo’lib o’tgan imtihon jamiyat oldida jadid maktablarning obro’ e’tiborini bir muncha ko’tardiki, bunda, Behbudiyning xizmatlari oz emas edi”.

Jadid namoyondalarining fidoiyligi, jonkuyarligi biz yosh avlodga namunadir. Shu bilan birga ular qoldirgan ilmiy merosni o’rganish va unga amal qilish, ularning faoliyatini davom ettirish bilan uchinchi renessansni yaratishda o’z hissamizni qo’shishimiz yo’lida Behbudiy vasiyatini o’zimizga shior deb belilishimiz kerak. Behbudiy o’z vasiyatida ta’kidlaganidek:

- Meni sevar o’rtoqlarim – manim so’zlarimni quloqlaringizga olingizlar! Biz ikki oydan beri Buxoro shahrida bandi bo’lib yurib, oxir 10 kundan beri bu erda (Qarshi shahrida) bu zolimlarning qo’lig’a tushib bandi bo’ldik. Jadid, kofir otini ko’tardik. Sipohlar ichida tilchilik otini ko’tardik. Bu erdan qutulmog’imiz gumon bo’ldi.
- O’rtoqlarim – Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, Qurbi va Akobir Maxdum va o’g’lonlarim Vadud Mahmud, Abdulqodir Shakuriy – sizlarga vasiyat qilaman! Maorif yo’lida ishlatturg’on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O’rtadan nifoqni ko’taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo’ymangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar! Hammaga ozodlik yo’lini ko’rsatingizlar! Bizdek maorif qurbonlarini yo’qlangizlar! Buxoro tuprog’iga tezlik ila yo’l boshlangizlar. Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Bizning qonimizni zolim beklardan talab qilingizlar! Maorifni Buxoro tuprog’ida joriy qilingizlar! Bizning otimizga maktablar ochingizlar! Bizlar ul chog’da qabrimizda tinch yotarmiz! Maning o’g’lonlarimga salom etkazingizlar! Bu hamrohlarimning avlodlaridan xabardor bo’lingizlar. Ushbu vasiyatlarimni yozib Ahmadga berdim”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Alimov, Usmonxon Oilada farzand tarbiyasi / Usmonxon Alimov; mas’ul muxarrir: Shayx Abdulaziz Mansur, - Toshkent; (Movarounnahr), 2018, - 460-b.
2. B – Zahiruddin Muhammad Bobur. Mubayyan va nasriy bayoni, “Risolayi volidiyya” asari nazmiy tarjimai va sharhi. Nasriy bayon va sharhlar muallifi M.Kenjabek; mas’ul moharrir A. Mansur; - T.; “Sharq”. 2014 – 448 – b.
3. www.ziyo.uz